

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN KREDIT-MODUL TIZIMINING SAMARADORLIK OMILLARI

Abdurasulova Shoira Kushakovna

*Innovatsion texnologiyalar universiteti, "Maktabgacha va boshlang'ich talim metodikasi" kafedrası
o'qituvchisi*

E-mail: shoiraabdurasulova1972@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilarda muloqot kompetensiyasini shakllantirish jarayonini kredit-modul tizimi asosida samarali tashkil etishning pedagogik omillari yoritilgan. Tadqiqot davomida ayniqsa talabalarning muloqotga tayyorgarlik darajasini oshirish, ta'lim jarayonida faol ishtirokini kuchaytirish, interfaol va reflektiv yondashuvlar orqali muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shart-sharoitlar tahlil qilingan. Shuningdek, kredit-modul tizimining modul mazmunini talabaning o'zlashtirish sur'ati, mustaqil ta'lim faoliyati, hamkorlikda ishlash ko'nikmalari va kommunikativ tajribasini kengaytirishga ta'siri asoslab berilgan. Maqolada ushbu tizim orqali muloqot kompetensiyasining motivatsion, kognitiv, faoliyat va shaxsiy tarkibiy qismlari uzviy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan metodik yondashuvlar va amaliy takliflar ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida samarali muloqot olib borish qobiliyatlarini rivojlantirishga, kasbiy kompetensiyaning sifat jihatdan oshishiga va kommunikativ madaniyatni shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Maqola natijalari boshlang'ich ta'limda sifatni oshirish, o'quv jarayonini takomillashtirish hamda muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik modelni yaratishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: kredit-modul tizimi, boshlang'ich ta'lim, muloqot kompetensiyasi, kommunikativ ko'nikmalar, pedagogik jarayon, interfaol metodlar, mustaqil ta'lim, reyting baholash, modul o'quv texnologiyasi, pedagogik amaliyot, reflektiv yondashuv, kasbiy kompetensiya, axborot-kommunikatsiya vositalari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ta'lim sifati.

Аннотация. В данной статье раскрыты педагогические факторы, обеспечивающие эффективную организацию процесса формирования коммуникационной компетентности у будущих учителей начального образования на основе кредитно-модульной системы. В ходе исследования проанализированы условия, способствующие развитию готовности студентов к общению, повышению их активности в учебном процессе, а также развитию коммуникативной компетентности посредством интерактивного и рефлексивного подходов. Обосновано влияние кредитно-модульной системы на темпы усвоения содержания модулей, организацию самостоятельной учебной деятельности, формирование навыков сотрудничества и расширение коммуникативного опыта студентов. В статье представлены методические подходы и практические рекомендации, обеспечивающие целостное развитие мотивационного, когнитивного, деятельностного и личностного компонентов коммуникативной компетентности. По результатам исследования установлено, что образовательный процесс,

организованный на основе кредитно-модульной системы, оказывает значительное влияние на развитие у будущих учителей начальных классов навыков эффективного общения, повышение уровня профессиональной компетентности и формирование коммуникативной культуры. Результаты статьи имеют практическую значимость для повышения качества начального образования, совершенствования учебного процесса и разработки методической модели, направленной на развитие коммуникативной компетентности.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, начальное образование, коммуникационная компетентность, коммуникативные навыки, педагогический процесс, интерактивные методы, самостоятельное обучение, рейтинговое оценивание, модульная образовательная технология, педагогическая практика, рефлексивный подход, профессиональная компетентность, информационно-коммуникационные средства, личностно-ориентированное обучение, качество образования.

Annotation. This article examines the pedagogical factors that ensure the effective organization of the process of developing communication competence among future primary school teachers within the credit–module system. The study analyzes the conditions that contribute to enhancing students' readiness for communication, increasing their active participation in the learning process, and improving their communication competence through interactive and reflective approaches. It also substantiates the impact of the credit–module system on the pace of mastering module content, the development of independent learning activities, collaboration skills, and the expansion of students' communicative experience. The article outlines methodological approaches and practical recommendations aimed at supporting the integrated development of motivational, cognitive, activity-based, and personal components of communication competence. According to the research results, the educational process organized on the basis of the credit–module system significantly contributes to developing effective communication skills among future primary school teachers, improving the quality of professional competence, and fostering communicative culture. The outcomes of this study hold practical value for enhancing the quality of primary education, improving the learning process, and designing a methodological model aimed at developing communication competence.

Key words: credit–module system, primary education, communication competence, communicative skills, pedagogical process, interactive methods, independent learning, rating assessment, modular educational technology, teaching practice, reflective approach, professional competence, information and communication tools, learner-centered education, quality of education.

KIRISH

Mamlakatimizda oliy ta'lim samaradorligini oshirish, talabalarni mehnat bozori talablari asosida raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlash, ularda XXI asr kompetensiyalarini shakllantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, kredit-modul tizimiga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish, mustaqil ta'limni kuchaytirish va o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Bu tizim, o'z navbatida,

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Boshlang'ich ta'limda kasbiy muvaffaqiyatga erishish bevosita muloqot madaniyatini egallash, o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblar va ijtimoiy muhit bilan samarali muloqot o'rnatish ko'nikmalarini shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Muloqot kompetensiyasining shakllanganlik darajasi o'qituvchining dars jarayonini tashkil etish, tushuntirish, tushunish, boshqarish, muammoli vaziyatlarni hal qilishda asosiy mezonlardan biri sifatida qaraladi. Shu bois kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish zamonaviy pedagogik talablarning ajralmas qismiga aylanmoqda. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, kredit-modul tizimi talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi. Mazkur tizimda mustaqil ta'lim, interfaol metodlar, reyting baholash mexanizmlari va amaliy topshiriqlarning ko'payishi muloqot kompetensiyasining rivojlanishiga xizmat qiladi. Jumladan, Abdurasulova Sh.K. ta'kidlashicha, kredit-modul tizimi talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muhim imkoniyatlarga ega, chunki jarayon nafaqat bilim berishga, balki muloqot kompetensiyasi, interfaol muloqotga kirisha olish, fikr almashish va shaxsiy faollikni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik muhit yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining muloqot kompetensiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan kredit-modul tizimi ta'lim sifati, kasbiy tayyorgarlik darajasi va ijtimoiy moslashuvchanlikni oshirishda muhim omil sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqolada kredit-modul tizimining boshlang'ich ta'limda muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga ta'siri, samaradorlik omillari hamda amaliy imkoniyatlari yoritiladi.

Shu bois mazkur maqola kredit-modul tizimi asosida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari muloqot kompetensiyasini shakllantirish jarayonini o'rganishga bag'ishlanadi.

Kredit-modul tizimining nazariy asoslari

Kredit-modul tizimi — bu o'quv jarayonini kredit birligi asosida tashkil etish va modullar ko'rinishida mazmunini rejalashtirishga asoslangan ta'lim texnologiyasi. Tizim talabaning o'quv yuklamasini o'lchash, baholash, bilim darajasini aniqlash va ta'limni individuallashtirishga xizmat qiladi. Bu model quyidagi ustunliklarga ega: mustaqil o'rganish faoliyatining kengayishi, talabaning shaxsiy ta'lim traektoriyasini tanlash imkoniyati, reyting asosida baholash mexanizmining mavjudligi, amaliy mashg'ulotlarning ko'payishi, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot sifatining oshishi shular jumlasidandir. Kredit-modul tizimi boshlang'ich ta'lim yo'nalishida ayniqsa muhimdir, chunki talabalarda kelajak pedagogik faoliyat uchun zarur bo'lgan nutq

madaniyati, suhbat olib borish mahorati, tushuntirish, tinglash va muloqotga kirishish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Muloqot kompetensiyasi — bu shaxsning ijtimoiy va kasbiy jarayonlarda samarali muloqot olib borishi, axborotni to‘g‘ri uzatish va qabul qilish, fikrni asosli ifodalash, suhbatdosh bilan to‘g‘ri munosabat o‘rnatish va kommunikativ vazifalarni bajara olish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun bu kompetensiya quyidagi sabablar bilan muhim: o‘quvchi shaxsiga psixologik ta‘sir ko‘rsatish, sinf jamoasi bilan sog‘lom muloqot muhitini yaratish, ota-onalar bilan pedagogik hamkorlik o‘rnatish, dars jarayonini boshqarish, ziddiyatlarni hal qilish, nutq madaniyatiga ega bo‘lish kabilar. Kompetensiya mehmondo‘stlik, bag‘rikenglik, aniq fikrlash, tinglay olish, so‘z tanlash, o‘z fikrini asoslash va suhbatdoshga moslashish kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi.

Kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning muloqot kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy pedagogik jarayonning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizim ta‘lim oluvchining faolligini oshirish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish hamda mustaqil fikrlash va erkin muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilar uchun muloqot kompetensiyasi kasbiy muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Kredit-modul asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda interfaol ta‘lim metodlarining qo‘llanilishi muloqot jarayonini jonlantiradi va talabalarni faol ishtirok etishga undaydi. Debat, munozara, juftlik va kichik guruhlarda ishlash, keys-stadi hamda rolli o‘yinlar orqali talabalar o‘z fikrini aniq va ravon ifodalash, boshqalarni tinglash, fikrlar xilma-xilligiga hurmat bilan yondashish ko‘nikmalarini egallaydi. Bunday metodlar nafaqat nutqiy faollikni oshiradi, balki jamoada ishlash va pedagogik vaziyatlarda to‘g‘ri muloqot strategiyasini tanlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Mustaqil ta‘limning kuchaytirilishi kredit-modul tizimining muhim jihatlaridan biri bo‘lib, u talabalarning muloqot tajribasini kengaytirishda katta ahamiyatga ega. Axborot izlash, ilmiy manbalarni tahlil qilish, savollar asosida ishlash va o‘zlashtirilgan bilimlarni taqdimot yoki og‘zaki chiqishlar orqali ifodalash jarayonida talabalar muloqot madaniyatini amaliy ravishda o‘zlashtiradi. Bu jarayon ularni mas‘uliyatli, tashabbuskor va o‘z fikriga ega shaxs sifatida shakllantiradi.

Refleksiv tahlil faoliyati esa talabaning o‘z nutqiy va kommunikativ faoliyatiga tanqidiy yondashishini ta‘minlaydi. O‘z chiqishlari va muloqot jarayonidagi xatti-harakatlarini baholash orqali talaba kamchiliklarini anglaydi, ularni bartaraf etish

yo'llarini izlaydi va o'z ustida ishlashga intiladi. Bu esa muloqot kompetensiyasining barqaror va ongli rivojlanishiga olib keladi.

Amaliy mashg'ulotlar, xususan, maktab amaliyoti jarayonida talabalarning muloqot kompetensiyasi real pedagogik vaziyatlarda mustahkamlanadi. O'quvchilar bilan bevosita muloqot qilish, dars jarayonini boshqarish, savol-javoblar va tarbiyaviy suhbatlar olib borish orqali bo'lajak o'qituvchilar o'z kasbiy muloqot tajribasini boyitadi. Bunday tajriba nazariy bilimlarning amaliy ahamiyatini chuqur anglashga yordam beradi. Shuningdek, raqamli kommunikatsiya vositalaridan foydalanish muloqot jarayonini zamonaviy talablar asosida rivojlantiradi. Onlayn platformalar, elektron taqdimotlar, bloglar va media materiallar orqali talabalar masofaviy muloqot qilish, axborotni vizual va raqamli shaklda ifodalash, pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini egallaydi. Bu esa ularning raqamli savodxonligini oshirish bilan birga, muloqot kompetensiyasini yangi bosqichga olib chiqadi. Boshlang'ich ta'limda muloqot kompetensiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan kredit-modul tizimi ta'lim jarayonining shaxsga yo'naltirilganligi, talabalarning mustaqil faolligi, o'zaro muloqotning kengayishi, modullarning tizimli tashkil etilishi va baholashning ob'ektivligi bilan uzviy bog'liq holda samarali natija beradi. Dars jarayonida interfaol kommunikatsiyaning yo'lga qo'yilishi hamda real pedagogik amaliyotning mavjudligi bu jarayonni yanada mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, mazkur tizimni amalga oshirish jarayonida ayrim muammolar ham kuzatiladi. Talabalarning mustaqil ta'limga tayyorgarlik darajasining pastligi, muloqotga oid amaliy mashg'ulotlarning yetarli emasligi, reflektiv tahlil faoliyatining sustligi va texnologik savodxonlikning yetarli darajada shakllanmaganligi kutilgan natijalarga to'liq erishishga to'sqinlik qilishi mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun muloqotga yo'naltirilgan treninglarni ko'paytirish, modul mazmuniga kommunikativ vazifalarni kengroq kiritish, sinflarda amaliy rolli mashg'ulotlarni tizimli yo'lga qo'yish hamda media va raqamli kommunikatsiya vositalaridan foydalanishni yanada kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni pedagogik mexanizmlar to'g'ri va uyg'un qo'llanilganda talabalarning muloqot kompetensiyasini samarali shakllantiradi. Bu esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularni zamonaviy ta'lim talablariga mos, muloqotga layoqatli va raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Kredit-modul tizimi boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi.

Tizimning o‘ziga xos mexanizmlari — modul asosida o‘qitish, reyting baholash, mustaqil ta‘lim, interfaol metodlar va reflektiv yondashuv — kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishni ta‘minlaydi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki:

- talabalarda muloqot madaniyati shakllanadi;
- nutqiy faollik ortadi;
- kasbiy kompetensiya rivojlanadi;
- ta‘lim sifati oshadi.

Shunday qilib, kredit-modul tizimining samarali tashkil etilishi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetensiyaning sifat darajasini yuksaltirishda hal qiluvchi omil bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurasulova Sh.K. Kredit-modul tizimida bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. Ilm sarchashmalari, UrDU, 2023.
2. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2015.
3. Qodirova B.T. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida shaxsiy kompetensiyaning rivojlantirishning metodik asoslari. Ta‘lim jarayoni jurnali, 2021, №2.
4. Ashurov A.A. Kommunikativ kompetensiyaning nazariy mohiyati va tahlili. Foreign Languages in Uzbekistan, 2020, №1(30), 76–83-betlar.
5. Fayzullayeva N. Pedagogik bilimlar – o‘qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi. Uzluksiz ta‘lim, 2018, №6, 109-bet.
6. Najmiddinova M. Boshlang‘ich ta‘limda kommunikativ ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi. O‘qituvchi va zamon, 2019, №4.
7. Ortiqboyeva L. Kredit-modul tizimi asosida boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida mustaqil ta‘lim tashkiliy modeli. Pedagogik mahorat, 2022, №3.
8. Tadjibaeva J. Psixologik kompetentlik va boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi. Science and World, 2020, №1(77), 32–33-betlar.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” to‘g‘risidagi farmoni. 08.10.2019 y.
10. Xudoyberdiyev A. Kredit-modul tizimida baholashning reyting mezonlari. Ta‘lim va innovatsiya, 2021, №1.
11. Ismatova Y. Kredit-modul tizimida mustaqil ta‘limni tashkil etish va baholash. Ilmiy ta‘lim jurnali, 2022, №1.
12. Jumaniyozova M. Zamonaviy ta‘limda “4K” modeli va uning boshlang‘ich ta‘limga tatbiqi. Ilm sarchashmalari, 2023, №11.
13. Monroe B. Communication Competence in Teacher Education. International Journal of Pedagogy, 2021, Vol. 6(3).
14. Martin J., Stewart L. Communication and Language Development in Early Education. New York, Routledge, 2018.
15. Hargie O. Skilled Interpersonal Communication: Research, Theory and Practice. London, Routledge, 2017.